

## Haykallardan butlarga



19:30 / 12.10.2019 2881

7

Bular olamdan o'tdi. Bolalar, otalarini o'sha haykalni tabarruk qilib, qattiq hurmatlash ila ulug'lashlarini va bu haykallarni o'pishayotganini hamda ularni ushlab, huzurida duo qilishayotganini ko'rardilar.

Va yana bolalar, otalarini butlar oldida boshlarini egib, ruku' qilishayotganini ham ko'rishar edi. Bolalarda, bu narsa otalariga qaraganda ziyoda bo'ldi. Ular ham sajda qiladigan bo'lishdi. Ulardan so'raydigan va ularga atab qurbonlik qiladigan bo'lishdi. Shunday qilib bu butlar ilohlarga aylandi. Insonlar bu butlarga, avval Allohga ibodat qilishganidek ibodat qiladigan bo'lishdi. Ularning oralarida bunday ilohlar ko'paydi.

Ularning nomlari, Vad, Suvo', Yag'us, Ya'uq va Nasr edi.